

**МАКТАБГАЧА YOSHDAGI ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN  
BOLALARНИНГ JISMONИY VA HARAKAT KO'NIKMALARINI RIVOJLANISH  
XUSUSIYATLARI**

**Abduxalilova Marjona Ixtiyor qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lif fakulteti Surdopedagogika yo'nalishi talabasi

### **Annontatsiya**

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning umurtqa pog'onasi va oyoq kaftlarida turli funksional chetlanishlar bukrlik, yelkalar assimetriyasi, oyoq kaftlarining deformatsiyasini aniqlash, uning oldini olishda jismoniy va harakatli ko'nikmalarini rivojlantirish haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'z:** Assimetriyasi, deformatsiyasi, Yurish sifati, harakatlar tezligi va qat'iyligi, harakat koordinatsiyasi, koordinatsiya, muvozanat funksiyasi, umurtqa pog'onasi, yassi oyoqlik, ritmik signal.

### **Аннотация**

Обсуждается выявление различных функциональных отклонений позвоночника и стоп у детей с отклонениями в развитии, таких как искривление, асимметрия плеч, деформация стоп, развитие физических и двигательных навыков для их профилактики.

**Ключевые слова:** асимметрия, деформация, качество ходьбы, скорость и твердость движений, координация движений, координация, функция равновесия, позвоночник, плоскостопие, ритмический сигнал.

### **Annotation**

It is discussed about the identification of various functional deviations in the spine and feet of children with developmental disabilities such as curvature, asymmetry of the shoulders, deformation of the feet, development of physical and motor skills for its prevention.

**Keywords:** Asymmetry, deformation, Walking quality, speed and firmness of movements, movement coordination, coordination, balance function, spine, flat feet, rhythmic signal.

Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni jismoniy va harakat ko'nikmalarini rivojlanishini tekshirish natijasida endigina yasli bog'chaga qabul qilingan va yil mobaynida bog'chaga kelgan bolalar o'rtasida tafovut aniqlandi. Ma'lum bo'ldiki, birinchi yil ta'lif olayotgan maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bola avvaldan ta'lif olib kelayotgan tengdoshiga nisbatan harakat tajribasi kamligi, ruhiy va jismonan sustligi bilan

ajralib turar ekanlar. O'tkazilgan tekshirishlar natijasida bolalarning umurtqa pog'onasi va oyoq kaftlarida turli funksional chetlanishlar bukrlik, yelkalar assimetriyasi, oyoq kaftlarining deformatsiyasi aniqlandi.

Shuningdek, bu ikki guruhlarni tekshirish natijasida avvaldan yasli-bog'chada ta'lif olmagan bolalarning asosiy harakatlarni bajarish malakalarini shakllanishi orqada qolishi ham kuzatiladi. Yurish sifati, harakatlar tezligi va qat'iyligi, harakat koordinatsiyasi holatlari avvaldan ta'lif olib kelayotgan bolalarda yaxshi rivojlangan.

Taqlid asosida tarbiyachi ketidan mashqlarni bajarish natijasida katta tafovutlar aniqlandi. Tajribalar ko'rsatishiga ta'limning turli bosqichlarida bir xil yoshdagi bolalarda jismoniy rivojlanishi va harakat ko'nikmasi holatlari turli darajada bo'lar ekan.

Ikkinchi yil ta'lif olayotgan bolalar keng hajmli harakat malakalariga ega bo'lgani va mashg'ulotni tashkil etishda qiyinchiliklar bo'lmagani sababli, bir mashg'ulot mobaynida ular sezilarli darajada ko'proq harakat bajarishlari mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, ular mashg'ulotining harakat faolligi yuqori bo'ladi.

Qo'llanmaga kiritilgan mashg'ulotlar mazmuniga, dasturga muvofiq holda bolalar egallashi mumkin bo'lgan harakatlar kiritilgan: yurish, yugurish, sakrash, tirmashish, emaklash, xaklab o'tish, koptok otish, korreksion mashqlar (muvozanat funksiyasini rivojlantiruvchi, umurtqa pog'onasini to'g'ri shakllanishi, yassi oyoqlikni oldini olish, shuningdek predmetlar bilan va predmetlarsiz umumrivojlantiruvchi mashqlar).

Koordinatsiya jihatidan yetarlicha qiyin va tabiiy harakat bo'lgani tufayli yurish har bir mashg'ulotning asosiy harakati sifatida kiritiladi. To'rt yoshdagi kar bolalar normal rivojlangan tengdoshlaridan harakat koordinatsiyasi va yurishdan orqada qoladilar. Ular oyoqlarini keng qo'yadilar, muvozanatni qat'iy ushlab turmaydilar, harakatlarida sustlik kuzatiladi. Tarbiyachining asosiy vazifasi, yurishda muvozanatni saqlashda yordam beradigan qat'iylikni shakllantirish, tomonlarga tebranishni kamaytirish uchun oyoqlarni o'rta chiziqqa yaqin qo'yish malakalarini o'rgatishdan iborat bo'ladi.

Bu yoshdagi eshitishida nuqsoni mavjud bolalarga yurish davomida oyoqlarni baland ko'tarish mashqini o'rgatish maxsus vazifa bo'lib qolmoqda. Bu mashqni o'rgatishga predmetlar ustidan xatlab o'tish mashqlarini doimiy bajarib borish bilan erishiladi (xoda, arkon, reyka, zinalar, kubiklar va b.q.). Bardoshni mashq qildirish, amaliy hayotda o'ta muhim bo'lgan, predmetlar orasida yurishda maqsadga yo'naltirilgan mo'ljal olishga yordam beradi. Bularning hammasi tarbiyachidan doimiy e'tiborni talab qiladi. Bolalar faqatgina bitta bo'lib emas, balki jufti bilan, guruh bilan yurishga o'rganishlari, turli predmetlarni aylanib o'tishini, qarshi tarafda gilar bilan to'qnashmasdan yurishni, berilgan yo'nalishga rioya qilishni, tarbiyachi ketidan mo'ljal bo'yicha harakatlanishini va mustaqil harakatlanishni o'rganishlari kerak.

Bu yoshdagi bolalardan yurish mobaynida harakatlarning aniq koordinatsiyasini talab qilib bo'lmaydi. Ularning boshlarini ko'tarib, qo'llarini bemalol qo'yib, oyoqlarini to'g'ri tashlab yurishlari muhimroqdir. Bularga asta-sekin, tarbiyachiga taqlid qilib, o'rganib boradilar.

Ma'lumki, kichik yoshdagi bolalarning yugurishdagi harakatlari, yurishga nisbatan balandroq, chunki qo'l va oyoq harakat koordinatsiyalari yugurishda avvalroq paydo bo'ladi. Ammo, kar bolalar yasli-bog'chasiga qabul qilinsa 4 yoshli bolalarning aksariyati yugurishni bilmasligi ma'lum bo'ldi (bizning ma'lumotlarga ko'r'a 30 %). Shuning uchun harakatlar aniq koordinatsiyasiga qo'yilgan talablar birinchi yil ta'lim olayotgan va ikkinchi yil ta'lim olayotgan bolalar uchun bir xil bo'ladi. Shuningdek, yugurish mashqlarini bajarishda erkin harakatlanish va bardoshni rivojlanТИRISHGA alohida e'tibor beriladi. Mashg'ulotlarda yugurishning quyidagi turlari qo'llaniladi: tarbiyachi ketidan "poda" bo'lib yugurish, tarbiyachi ketidan va mustaqil zalning qarshi devori tomon yugurish, tabiyachi ketidan va mustaqil doirada kanat bo'ylab yugurish, doirada ketma-ket yugurish, predmetlar bilan yugurish, predmet tomon kanatni kesib yugurish (bittadan, ikitadan, uchtadan bo'lib) koptok ketidan, bayroqcha tomon, tarbiyachi ketidan yo'nalishini o'zgartirib yugurish.

Ta'limning birinchi va ikkinchi yillarda bolalarga yugurish taxminan bir xil yuklamada beriladi. Yurish va yugurish, albatta baland, ritmik signalli ovozlar jo'rligida o'tkaziladi (baraban, pianino, akardeon).

Kar bolalarga yassi oyoqlikka moyillik yuqori bo'lganligi sababli, ularga katta balandlikdan sakrash mashqlarini berish tavsiya etilmaydi. Chunki bolalar to'g'ri yerga tushish malakalarini egallamagan bo'ladilar, ular buni qo'pol holda, oyoqlarni to'g'ri tutib, ya'ni bukmasdan bajaradilar. Ilk mashg'ulotlardoq namunali ko'rsatish yordamida bolalarga joyda sakrash, qayta sakrash, xakkalash mashqlarini yumshoq, biroz oyoq tizzalarini bukkan holda bajarishni o'rgatib borish kerak. Bular sustlashgan mushaklarni ortiqcha lat yeishdan asrashga yordam beradi.

## Foydalilanilgan adabiyotlar

1. "Surdopedagogika" òquv -uslubiy majmua. Tuzuvchi; Mamarajabova.Z.N
2. Fayziyeva U.Y. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o\_rgatish.: Ped. fan. nomz. dis. .... avtoref. –Toshkent: TDPI. 1994
3. P.Po'latova, L. Nurmuhamedova, Sh.Amirsaidova Maxsus pedagogika-T.: Fan va Texnologiyalar ,2014
4. AmirsaidovaSh.M.. Maxsus pedagogika fani rivojlanishida sharq mutafakkirlari g'oyalarining o'rni va roli. Ped.fan.nomz....diss.
5. Речицкая Дошкольная сурдопедагогика. М., 2001 г. Е.Г.
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
7. [www.defektolog.uz](http://www.defektolog.uz)